



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI QO'SHINLARIDA HARBIY FORMALI UST-BOSHLARNING KIYISH QOIDALARI

**Kurbanov Gani Abilovich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi,  
rezervdagi podpolkovnik  
telefon: +99897 777-28-25

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7096652>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 16<sup>th</sup> September 2022

Online: 20<sup>th</sup> September 2022

### KEY WORDS

*Harbiy forma, harbiy kiyim rusumi, harbiy kiyim va poyabzal, harbiy kiyim-kechak, tantanali kiyim, kundalik kiyim, dala kiyimi, maxsus kiyim, o'rnatilib-yechiladigan harbiy pogonlar, ko'ylak, galstuk, sharf, ko'lqoplar, oyoq kiyim va paypoq.*

Harbiy formal ust - boshlarni kiyishga qo'yilgan talablar.

Harbiy xizmatchining tashqi ko'rinishi barcha formal ust - boshlarda ko'rkam va chiroyli bo'lishi kerak. Harbiy anjomlarni loyihalashtirishda ularning alohida buyumlari harbiy xizmatchilar tanasida to'g'ri va chiroyli joylashishiga intilish zarur, ularning rangi va bezaklari zamonaviy harbiy kiyim va poyabzal bilan moslashuviga erishish kerak bo'ladi.

Harbiy kiyimlarni loyihalashda zamonaviy fan va texnika yutuqlari xisobga olinishi va muqobil kompozitsion va konstruktiv echimlar tanlanishi kerak. Insonni fiziologik tuzilishi harbiy xizmatchilarni razmeri – uzunligi eni. Harbiy kiyimlar xizmatchilarni tinchlik va urush vaqtida

### ABSTRACT

*Ushbu maqola hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi qo'shinlaridagi harbiy xizmatchilarning Qonunchilikka muvofiq qanday harbiy kiyim-kechak kiyishi mumkinligini hamda harbiy kiyimlar xizmatchilarni tinchlik va urush vaqtida murakkab vazifalarini bajarishlarida ishonchli ximoyalashi kerakligi, ularni kiyib yurish qoidalariga amal qilish naqadar samarali ekanligi haqida fikr yuritamiz.*

murakkab vazifalarini bajarishlarida ishonchli ximoyalashi kerak.

Harbiy libos harbiy xizmatchilarni atmosfera yomg'ir-garchiliklaridan, sovukdan, issikdan va boshqalardan ximoya qilish bilan birga, o'z vaqtida ommaviy qirg'in qurollaridan saqlashi, ularni niqoblashi, turli to'siqlardan o'tishlarini kechib o'tishda qiyinlik tug'dirmasligi kerak.

Qonunchilikka muvofiq quyidagilar harbiy kiyim-kechak kiyishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar;

harbiy kiyim rusumini kiyish huquqi bilan rezervga (zaxiraga, iste'foga) bo'shatilgan harbiy xizmatchilar;



safarbarlik chaqiruvi rezervida harbiy yig'inlarni o'tayotgan fuqarolar;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va "Temurbeklar maktabi" o'quvchilari;

harbiy yig'inlarga jalb qilingan harbiy xizmatga majburlar.

Kundalik, dala va bayramona formali ust - boshlarni kiyish qoidalari. Ordenlar va medallarni taqish qoidalari. Formali ust - boshlardagi farqli belgilar va ularni taqish qoidalari. Yozgi va qishki kundalik formali ust - boshlar, ishchi va maxsus kiyimlarni kiyish, pogon va farqli belgilarni taqish qoidalari.

Harbiy kiyim-kechak mazkur Qoidalarning talablariga qat'iy amal qilgan holda kiyiladi. Harbiy kiyim-kechakning alohida unsurlari belgilangan andoza ta'riflarga javob berishi, sinchkovlik bilan moslashtirilgan va benuqson saqlangan holatda bo'lishi kerak.

Harbiy kiyim-kechak rusumi quyidagicha belgilanadi:

- a) tantanali;
- b) kundalik;
- v) dala kiyimi;
- g) maxsus.

Har bir kiyim-kechak rusumi qishki, mavsumiy va yozgi turlarga ajratiladi.

Harbiy kiyim-kechak rusumi quyidagi tartibda kiyiladi:

- a) tantanali kiyim:

saf uchun - tantanali va bayram marosimlarida ishtirok etganda, harbiy qism, muassasalarga orden, medal va jangovar bayroq topshirish marosimlarida, Vatanga kasamyod qabul qilganda, Faxriy qorovul tarkibiga tayinlanganda va harbiy qismning yillik bayram kunlarida, bunda bel kamari va qo'lqopda;

safdan tashqari - tantanali yig'ilishlarda, rasmiy qabullarda, gulchambar qo'yish marosimida, davlat mukofotlarini olganda, lavozimga tayinlanganda bevosita boshliqqa tanishtirish uchun va harbiy unvonni berish jarayonlarida, bunda bel kamari va qo'lqopni yechishga ruxsat beriladi;

muddatli harbiy xizmatchilarni harbiy qism qarorgohidan javob berganda va muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilganda.

b) kundalik kiyim - jangovar tayyorgarlik va dala mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lmagan kundalik xizmat faoliyatida;

v) dala kiyimi - jangovar va texnik tayyorgarlik hamda dala mashg'ulotlari va jangovar navbatchilikda.

Yozgi kiyim-kechak rusumida dala kostyumi yengini tirsagigacha shimarishga, sutkalik naryad va jangovar navbatchilikdan tashqari kundalik xizmat faoliyatida dala kostyumi ustidan bel kamari taqmaslikka ruxsat beriladi.

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilari va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilari uchun dala kiyimi bir vaqtning o'zida kundalik kiyim hisoblanadi.

g) maxsus kiyim - ayni bir vazifani bajarish vaqtida kiyish uchun mo'ljallangan kiyim-kechak rusumi bo'lib, harbiy xizmatchilar egallagan mutaxassisliklariga ko'ra maxsus vazifalarni bajarish vaqtida kiyiladi. Maxsus kiyim-kechakni kundalik xizmat faoliyati vaqtida kiyish taqiqlanadi.

Saf ko'rigi, saflanish va xizmat yig'ilishlari uchun kiyim-kechak rusumi mazkur tadbirlarni o'tkazuvchi shaxslar tomonidan belgilanadi va e'lon qilinadi.

Sutkalik naryad tarkibida xizmatini o'tayotgan harbiy xizmatchilarning kiyim-kechak rusumi garnizon boshlig'i tomonidan belgilanadi va e'lon qilinadi.



Yozi, qishki va mavsumiy kiyim rusumiga o'tish, shuningdek kiyim-kechak rusumini kiyishning boshlanishi va tugatilishi harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlari va garnizon boshliqlarining buyrug'i bilan belgilanadi.

Yuridik va tibbiy harbiy hisob ixtisosligiga mansub harbiy xizmatchilar hamda harbiy orkestrlar harbiy xizmatni o'tayotgan tegishli qo'shin turi uchun belgilangan kiyim rusumini kiyadilar, biroq o'zlarining mutaxassisliklariga tegishli farqlovchi nishondan foydalanadilar.

Xizmat vazifalarini inobatga olgan holda, Harbiy avtomobil inspeksiyasining shtatdagi harbiy xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi xodimlari uchun belgilangan kiyim-kechak rusumini kiyadilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy apparati, harbiy okruglar boshqaruv apparati va oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy xizmatni o'tash uchun tayinlangan harbiy xizmatchilarga lavozimga tayinlangan kunidagi qo'shin turi bo'yicha kiyim-kechak rusumini kiyishga ruxsat etiladi.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va harbiy havo kuchlari qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufida xizmatni o'tash uchun tayinlangan harbiy xizmatchilar mazkur bo'linmalar uchun belgilangan rangdagi kiyim-kechak rusumini kiyadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining o'zgaruvchan shaxsiy tarkibi qaysi qo'shin turidan kelgan bo'lsa, mazkur qo'shin turi uchun belgilangan kiyim-kechak rusumini kiyadilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim muassasalari (bundan buyon matnda OHTM deb yuritiladi) kichik mutaxassislarni tayyorlash maktabi

kursantlari harbiy kiyim-kechak rusumini mutaxassisliklari bo'yicha qo'shin turi fakultetiga mansub farqlovchi nishonlar bilan kiyadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchilari yig'in davrida mavsumga ko'ra faqat o'zlari uchun belgilangan kiyim-kechak rusumini kiyadilar.

Qorovul shaxsiy tarkibi kiyim-kechak rusumini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari nizomida belgilan tartibda kiyadilar.

Harbiy xizmatchilarga alohida hollarda maxsus ko'rsatma asosida xizmat vaqtida fuqarolik kiyimini kiyishga ruxsat beriladi. Dala mashg'ulotlari va jangovar tayyorgarlik mashqlarida dala kiyim-kechak rusumi zaruriy anjomlar bilan kiyiladi.

Harbiy xizmatchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

o'zgartirilgan yoki belgilanmagan (tasdiqlanmagan) namunalardagi harbiy kiyim-kechak rusumini kiyish va farqlovchi nishonlarni taqish;

harbiy kiyim-kechak rusumining alohida unsurlarini, shuningdek harbiy kiyim-kechak rusumini fuqarolik kiyimi bilan aralash holda kiyish;

harbiy dala kiyim-kechak rusumida tufli kiyish;

rangi uchgan, kir, qomatga moslashtirilmagan, yaxshi

dazmollanmagan harbiy kiyim-kechaklarni kiyish va yaroqsiz pogonlarni taqish.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilarining harbiy kiyim-kechak rusumi, harbiy kiyim-kechak rusumining alohida unsurlarini kiyish qoidalarini:

Bosh kiyim



Bosh kiyimlar furajka va panama soyaboni qoshlarga parallel holda, bosh qiyimning pastki qirrasini qoshlarning ustidan 2-4 sm masofada bo'lishi kerak.

Tantanali va kundalik kiyim rusumlarida bosh kiyimlar tilla rangli kokarda bilan, dala kiyim rusumidagi bosh kiyimlar esa himoya rangli kokarda bilan kiyiladi. Harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Maxsus operatsiya kuchlari va havo-desant qo'shinlari safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar kundalik furajkaga kokarda bilan birga farqlovchi nishon belgisi taqiladi.

Generallarining tantanali va kundalik furajkalari kokarda va bezak, dala furajkasi himoya rangli kokarda bilan kiyiladi.

Quloqchin telpakni havo harorati -10 OS va undan past bo'lganda quloqchinlari tushirilgan holatda kiyishga ruxsat etiladi. Safda quloqchinlar komandirning ko'rsatmasi bilan tushuriladi. Quloqchin telpakning quloqchinlari tushirilgan holatda quloqchinning bog'lamlari iyakning tagidan bog'lanadi, quloqchinlari ko'tarilgan holatda esa bog'lamlar quloqchinlar tagiga kirgiziladi. Quloqchin telpak quloqchinlarining bog'lamlari qurol-aslaha va harbiy texnikalarga xizmat ko'rsatish, xo'jalik ishlarida va bo'linma komandirining ko'rsatmasiga ko'ra boshqa holatlarda orqasiga bog'lanishi mumkin.

Yechilgan bosh kiyimlar safda va saf mashqlarini bajarish vaqtida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomida belgilangan tartibda tutiladi. Safdan tashqarida bosh kiyimlar chap qo'lda, kokarda oldinga, bosh kiyimning tag qismi esa o'ngga qaratilgan bo'lishi kerak.

Beretlar kundalik xizmat faoliyatida kundalik, dala va maxsus harbiy kiyim-kechak rusumlari bilan, garnizonning alohida tadbirlarini bajarish vaqtida esa

garnizon boshlig'i va garnizon komendanti ruxsati bilan kiyiladi.

Beretlarning rangi qo'shin turiga ko'ra quyidagicha belgilanadi:

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va harbiy havo kuchlari, havo-desant qo'shinlari hamda razvedka bo'linmalari uchun – havorang;

maxsus operatsiya kuchlari uchun – to'q yashil;

artilleriya, muhandis-sapyor, tank, avtomobil, zenit, aloqa va ta'mirlash bo'linmalari uchun – qora;

boshqa bo'linmalar uchun – qizil.

Ustki kiyim

Ustki kiyimning barcha tugmalari qadalgan holatda bo'ladi.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan ayollarning tugmalari chap tomonga qadaladi.

Chodir-yopinchiq noqulay ob-havo sharoitida (yomg'ir, qor, shamol, bo'ron) har qanday kiyim-kechak rusumida kiyim ustidan kiyiladi.

Yozgi dala kostyumi qishki mavsumda barcha tugmasi qadaladi va yangi tushirilgan holatda kiyiladi, yozgi kiyim-kechak rusumida yuqoridan bitta tugmani yechishga, yengini tirsagigacha shimarishga, sutkalik naryad va jangovar navbatchilikdan tashqari kundalik xizmat faoliyatida yozgi dala kostyumi ustidan bel kamari taqmaslikka, issiq vaqtda kostyum tagidan futbolka o'rniga mayka kiyishga ruxsat beriladi.

Yozgi dala kiyimi rusumida shimning pastki qismi yuqori qo'njli botinkani ichiga kiritiladi.

Yozgi dala kiyim-kechak rusumida belgilangan namunadagi krossovka kiyishga ruxsat beriladi.

Qishki dala kurtkasini kiyganda barcha tugmalar qadaladi. Sutkalik naryad va



jangovar navbatchilikdan tashqari kundalik xizmat faoliyatida qishki dala kurtkasi ustidan bel kamari taqmaslikka, noqulay ob-havo sharoitida yoqasini kutarish va kapyushonini kiyishga ruxsat beriladi.

Kundalik kurtkaning zanjirsimon yopqichi ko'krak choki barobarigacha qadalgan bo'ladi.

Yubka kundalik va tantanali kiyim rusumida kiyiladi. Yubkaning quyi qismi tizzadan 3-5 sm pastda bo'lishi kerak.

Ko'ylak, galstuk, sharf va ko'lqoplar Yengi uzun ko'ylaklarning barcha tugmalari qadalgan holda galstuk bilan kiyiladi.

Galstuk yengi uzun ko'ylak bilan kiyiladi va ko'ylakning yuqoridan uchinchi va to'rtinchi tugmalari o'rtasiga qistirigich bilan qistiriladi.

Sharf qishki kiyim-kechak rusumida mavsumiy kurtka yoqasi ostidan 1-2 sm chiqargan holda taqiladi.

Tantanali kiyim-kechak rusumida oq rangli qo'lqop, kundalik va dala kiyimi rusumida qora rangli qo'lqop kiyiladi.

Harbiycha salomlashganda qo'lqop yechilmaydi.

Oyoq kiyim va paypoq

Harbiy kiyim-kechak rusumini kiyganda oyoq kiyimlar belgilangan namunadagidek, ya'ni doimo tozalangan va yaroqli holatda, tufli va yuqori qo'nji botinkalarning bog'ichlari tartibli bog'langan bo'lishi kerak.

Oyoq kiyimlar toza, soz va shikastlanmagan bo'lishi lozim.

Paypoqlar qora rangda bo'lishi zarur.

Rangi uchgan, belgilangan rangiga va turli yozuv va rasmi paypoqlarni kiyish man etiladi.

Anjomlar

Generallarning tantanali kamari mundirning pastdan birinchi va ikkinchi qatordagi tugmalari o'rtasida, ofitser, serjant va oddiy askarlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning mundirlarida yuqoridan uchinchi tugmani ustidan taqiladi.

Bel kamarlari faqat sutkalik naryad va jangovar navbatchilikda turgan vaqtda ustki kiyim-kechak ustidan taqiladi.

Dala sumkasi barcha kiyim-kechak rusumida ustki kiyim-kechak ustidan, bog'ichi o'ng yelka bo'ylab taqiladi.

Akselbant faqat faxriy qorovul, orkestr va ansambl shaxsiy tarkibi tomonidan alohida ko'rsatma bo'yicha taqiladi.

Farqlovchi nishonlarni taqish hamda pogonlar va qo'shin turi belgisi

Mo'ljallanishi bo'yicha pogonlar tantanali, kundalik va dala kiyim-kechak rusumi uchun pogonlarga bo'linadi, taqish usuliga ko'ra esa - tikiladigan va o'rnatilib-yechiladigan turlarga bo'linadi.

Tikiladigan pogonlar faqat mundir (kitel)ga, boshqa barcha harbiy kiyimlarga o'rnatilib-yechiladigan pogonlar o'rnatiladi. Generallar va ofitserlar uchun tantanali va kundalik kiyimlar pogonlariga tillarang, dala va maxsus kiyimlar pogonlariga esa himoya rangli sakkiz qirrali yulduzcha va tugmalar joylashtiriladi.

Kontrakt bo'yicha oddiy askar va serjantlar shuningdek kursantlar va muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarning pogonlari belgilangan namuna asosida tayyor holda ishlab chiqariladi.



## Tikiladigan pogonlarga yulduzchalar quyidagi tartibda joylashtiriladi:

*Jadval-1*

T/r	Harbiy unvoni	Yulduzchalar soni	Pogonning quyi chekkasidan birinchi yulduzcha markazigacha bo'lgan masofa, mm	Yulduzchalar o'rtasidan pogon uzunasi bo'ylab keyingi yulduzcha markazigacha bo'lgan masofa, mm
1.	Armiya generali	1	45	-
2.	General-polkovnik	3	35	30
3.	General-leytenant	2	45	40
4.	General-mayor	1	60	-
5.	Polkovnik	3	30	30
6.	Podpolkovnik	2	30	-
7.	Mayor	1	45	-
8.	Kapitan	4	30	25
9.	Katta leytenant	3	30	25
10.	Leytenant	2	30	-

## O'rnatilib-yechiladigan pogonlarga yulduzchalar quyidagi tartibda joylashtiriladi:

*Jadval-2*

T/r	Harbiy unvoni	Yulduzchalar soni	Pogonning quyi chekkasidan birinchi yulduzcha markazigacha bo'lgan masofa, mm	Yulduzchalar o'rtasidan pogon uzunasi bo'ylab keyingi yulduzcha markazigacha bo'lgan masofa, mm
1.	Armiya generali	1	40	-
2.	General-polkovnik	3	30	30
3.	General-leytenant	2	35	30
4.	General-mayor	1	45	-
5.	Polkovnik	3	30	30
6.	Podpolkovnik	2	30	-
7.	Mayor	1	40	-
8.	Kapitan	4	25	20
9.	Katta leytenant	3	25	20
10.	Leytenant	2	25	-

Dala kiyim-kechak rusumida kiyim-kechak rangiga mos, himoya rangda

hoshiyalangan, o'rnatilib-yechiladigan pogondan kundalik kurtkalarda esa



kundalik kiyim-kechak rangiga mos o'rnatilib-yechiladigan pogondan foydalaniladi.

Ofitserlarning dala kiyim-kechak rusumi pogonlarida belgilangan o'lchamdagi himoya rangli metall (yoki tikiladigan) yulduzlar (yulduzchalar) joylashtiriladi.

O'rnatilib-yechiladigan pogonlar trapesiyasimon shaklda bo'ladi. Pogon o'lchamlari: uzunligi – 90 mm, pogon ostini kengligi – 60 mm, pogon yuqorisining kengligi esa – 50 mm.

Generallarning mundiri (kiteli) yoqasiga zarli ip (kanitel)dan bezak tikiladi.

### ***Qo'shin turi belgisi quyidagi tartibda joylashtiriladi:***

a) mundir (kitel) yoqasi yuqori burchagi uchidan qo'shin turi belgisi markazgacha masofa 30 mm;

b) ofitserlarda tikiladigan pogonning yuqori qirrasidan markazga uzunasi bo'ylab qo'shin turi belgisi markazigacha masofa 35 mm;

Dala va maxsus kiyim rusumida qo'shin turi belgisidan foydalanilmaydi.

Tikiladigan pogonning yuqori qirrasidan markazga uzunasi bo'ylab oltin rangli tugmaning markazgacha masofa 15 mm.

Pogonlardagi chiziqlar quyidagicha farqlanadi:

Havo hujumidan mudofaa qushinlari va harbiy havo kuchlari, havo-desant qo'shinlari, maxsus operatsiya kuchlari bo'linmalari va razvedka bo'linmalari uchun havorang;

Boshqa bo'linmalar uchun qizil.

### **Yeng belgilari**

Yeng belgilari mundir, kitel, mavsumiy va kundalik kurtkalar, charm kurtka hamda muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarning yozgi tantanali kurtkasi yenglariga tikiladi.

“O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLAR” yozuvi tushirilgan yeng belgisi chap yengning yuqori nuqtasidan 12 sm masofada yeng tashqi tomoniga tikiladi. “MUDOFAA VAZIRLIGI” yozuvi tushirilgan (harbiy okrug, oliy harbiy ta'lim muassasasi va qo'shin turi bo'yicha) yeng belgisi o'ng yengning yuqori nuqtasidan 12 sm masofada yeng tashqi tomoniga tikiladi.

Yeng belgilari kundalik va tantanali kiyim uchun asosi kundalik kiyim matosi rangida rangli, dala kiyimi uchun asosi dala kiyimi rangida himoya rangli bo'ladi.

Dala kiyimlari va charm kurtkaga tikiladigan yeng belgilari himoya rangda bo'ladi.

Qishki dala kurtkasining chap yengi yuqori nuqtasidan 12 sm masofada yeng tashqi tomoniga hamda yozgi dala kostyumi chap yengi cho'ntak klapaniga O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ining 4,5 x 8,5 sm o'lchamdagi rangli nusxasi tikiladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va “Temurbeklar maktabi” o'quvchilari uchun o'qish bosqichini bildiruvchi belgilangan namunadagi yeng belgisi kundalik kitelning o'ng yengiga yeng belgisi tagidan 1 sm oraliqda tikiladi.

### **Ko'krak belgilari**

Yozgi dala kostyumida ko'krak belgilari quyidagicha joylashtiriladi:

ko'krakning chap tomonida – himoya rangli ip bilan hoshiyalangan “qon guruhi” belgisi, o'lchami 3,5 x 12,0 sm, cho'ntak klapanidan 2 mm yuqorida;

ko'krakning o'ng tomonida – himoya rangli ip bilan hoshiyalangan “O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI” yozuvli belgi, o'lchami 3,5 x 12,0 sm, cho'ntak klapanidan 2 mm yuqorida;

himoya rangli ip bilan hoshiyalangan mutaxassislik toifasi bo'yicha ko'krak



nishoni ko'krakning o'ng tomonida, "O'ZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI" yozuvli belgisining yuqori qirrasidan 2 mm masofada.

Qishki dala kurtkasiga ko'krak belgilari o'rnatilmaydi.

Muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarining yozgi tantanali kurtkasiga belgilangan namunadagi rangli ko'krak belgilari yuqoridagi tartibda tikiladi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan to'qimachilik sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar yuksak samara berayotgani aloxida ahamiyat kasb etmoqda.

To'qimachilik va maxsulotlarni yitishtirish va ishlab chiqarish sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridir.

Mustaqillika erishgach, paxta tolasi va undan mahsulot ishlab chiqarish miqdorini o'zimiz belgilashga ega bo'ldik.

Mamlakatimiz amalga oshirayotgan ijtimoiy iqtisodiy siyosiy milliy armiyamizning moddiy va ma'naviy farovonligini yanada oshirish, harbiy xizmatchilarni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Bunda ishlab chiqarilayotgan xalq istimol mollarining sifatini yaxshilash ularning assortimintini yanada kengaytirish hamda jaxon bozorida raqobodbardosh-ligini oshirish aloxida ahamiyat kasb etadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. Toshkent - "O'zbekiston", 1996.
2. "Charm buyumlari texnologiyasi" o'quv darsligi S.Maqsudov-Toshkent sh.
3. "Poyabzal materiallarini me'yorlashtirish" o'quv qo'llanmasi U.M.Maqsudova - Toshkent sh.
4. Ip gazlama ishlab chiqarishning umumiy texnologiyasi.T.; O'qituvchi nashriyoti.2017 y.
5. Sanoat mollari tovarshunosligi. O'zbekiston nashriyoti.
6. Darslik. "Harbiy oyoq kiyim va aslaxalar".Rossiya Federasiyasi,Leningrad sh.
7. Darslik. "Harbiy kiyim". Rossiya Federasiyasi, Leningrad sh.
8. "Nooziqovqat material va tovarlarni tadqiqot ishlarini olib borish" o'quv qo'llanmasi.Iqtisod. Rossiya Federasiyasi, Moskva sh.\
9. Шахобидинов, В. Э., Абдазимов, Ш. Х., Орипов, С. Г. У., & Гофуров, Ё. К. (2022). ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ В ЖЕЛЕЗНОЙ ДОРОГИ И ОБЪЕКТЫ НАРОДНОГО ХОЗЯЙСТВА ПРИ ПРИРОДНЫХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3(5), 807-814.
10. Shahobiddinov, V. E., Khodjayeov, O. S., & Oripov, S. G. (2021). TEMIR YO 'L TRANSPORTIDA SODIR BO 'LGAN TABIIY VA TEXNOGEN TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA AVARIYA QUTQARUV ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 987-994.



11. Oripov, S. (2022). O 'ZBEKISTONDA KONTEYNER TASHISH HOLATI TAHLILI. "Yosh ilmiy tadqiqotchi" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.
12. Абдазимов, Ш. Х., Шахобидинов, В. Э., & Орипов, С. Г. У. (2022). ПОСЛЕДСТВИЯ НАВОДНЕНИЯ И НАВОДНЕНИЯ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ СООРУЖЕНИЯХ И НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТАХ. ОРГАНИЗАЦИЯ АВАРИЙНО-СПАСАТЕЛЬНЫХ РАБОТ ПРИ СТИХИЙНЫХ БЕДСТВИЯХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 773-780.
13. Oripov, S. (2022). MAQSUD SHAYXZODA-ILMI DARYOGA O'XSHAGAN OLIM VA QOMUSIY BILIM SOHIBI. «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ».
14. Khakimovich, A. S., Djabborov, S. X., & Shaxobidinov, V. E. (2022). Impact of Water Resources on Objects and Lines of the Railway in Mountain and Foothill Places of Uzbekistan. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 234-240.